

Kirish imtihonlari (1-bosqich va 2-bosqich) natijalari e'lon qilindi!

Hurmatli abituriyentlar,

2022-2023 o'quv yili uchun

KIRISH IMTIHONLARIDAN MUVAFFAQIYATLI O'TGANINGIZ BILAN TABRIKLAYMIZ!

Ushbu rasmiy e'longa alohida e'tibor berishingizni so'raymiz!

Bo'lib o'tgan ikkita kirish imtihonlari (birinchi – 13 may, ikkinchi – 5,6 iyul) natijalariga ko'ra, abituriyentlar beshta toifaga bo'lingan:

BIRINCHI TOIFA:

60,00 va undan yuqori ball to'plaganlar nafaqat ikkinchi kurs (First Level)ga o'qishga kiradilar, balki ITALIYA YO'NALISHLARI UCHUN TO'LIQ GRANT ham olishadi. Agar ariza beruvchilar IELTS sertifikatiga ega bo'lmasa (kamida 5,5 ball), ular IELTS sertifikatini (kamida 5,5 ball) 2022-yil dekabr oyining oxiriga qadar topshirishlari kerak *. Ushbu toifada o'qish to'lovi mavjud emas.

IKKINCHI TOIFA:

50.00 va undan yuqori, ammo 60.00 dan past ball to'plaganlar, to'g'ridan-to'g'ri ikkinchi kurs (First Level)ga qabul qilinadi va.UzAvto hamda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi grantlari mavjudligiga qarab ITALIYA YO'NALISHLARI UCHUN TO'LIQ GRANT uchun ko'rib chiqiladi. Agar ariza beruvchilar IELTS sertifikatiga ega bo'lmasa (kamida 5,5 ball), ular IELTS sertifikatini (kamida 5,5 ball) 2022-yil dekabr oyining oxiriga qadar topshirishlari shart *. Bir o'quv yili uchun

o'qish to'lovi 28 500 000 (yigirma sakkiz million besh yuz ming) so'mni tashkil qiladi.

** Agar abituriyent IELTS sertifikatini o'z vaqtida taqdim etmasa, u avtomatik ravishda birinchi kurs (Preparatory Year)ga o'tadi.*

UCHINCHI TOIFA:

10.00 va undan yuqori, ammo 50.00 dan past ball to'plaganlar, IELTS sertifikatining mavjudligidan yoki mavjud emasligidan qat'i nazar, birinchi kurs (Preparatory Year)ga qabul qilinadi. Bir o'quv yili uchun o'qish to'lovi 28 500 000 (yigirma sakkiz million besh yuz ming) so'mni tashkil qiladi. Ushbu toifaga IELTS (kamida 5,5 ball) sertifikatini berish muddati – o'quv yili so'ngiga qadar.

TO'RTINCHI TOIFA:

0 dan yuqori, lekin 10 balldan kam to'plaganlar qabul chegarasidan o'ta olmagan, shuning uchun ular kutish ro'yxatiga kiritilgan va qabul kvotasi to'lmagan taqdirda birinchi kurs (Preparatory Year)ga o'qishga qabul qilinadi.

BESHINCHI TOIFA:

0 balldan kam yoki 0 ball to'plagan abituriyentlar qabul chegarasidan o'ta olmagan, shuning uchun ular kutish ro'yxatiga kiritilgan va qabul kvotasi to'lmagan taqdirda faqat Superkontrakt asosida birinchi kurs (Preparatory Year)ga o'qishga qabul qilinadi. Birinchi o'quv yili uchun to'lov 42 750 000 (qirq ikki million yetti yuz ellik ming) so'm.

Abituriyentlar uchun ajoyib imkoniyat!

1-avgustgacha TO'LOV UCHUN SHARTNOMANI TO'LIQ to'lagan abituriyentlar shartnoma summasidan **10% chegirmaga** ega bo'ladilar.

Shartnomalarni rasmiylashtirish Toshkent shahridagi Turin Politexnika Universiteti binosida **2022-yil 14-iyul soat 09:00 dan** boshlab amalga oshiriladi.

Sentabr oyidagi kirish imtihonlari (3-bosqich) qoidalari tez orada e'lon qilinadi.

Qabul komissiyasining ishi uchun mas'ul shaxslar:

Rektor – Inoyatxodjayev Jamshid Shuxratullaevich

O'quv va ilmiy ishlar bo'yicha prorektorlar – Fulvio Rinaudo,
Guido Marchetto, Pierluigi Leone

Dekan – Abdullayev Farhod Bahramovich

Toshkent shahridagi Turin Politexnika Universiteti ma'muriyati ushbu ro'yxatdan tashqari shaxslarning faoliyati uchun javobgar emas.

Kerakli hujjatlar ro'yxati:

Ariza beruvchi pasportining asl nusxasi;

Ariza beruvchining ota-onasining pasport nusxasi.

Barcha savollar bo'yicha raqamlar:

(71) 246-80-51/52

Elektron pochta: admission@polito.uz

Manzil: Kichik Kichik Halqa Yo'li ko'chasi 17, Olmazor tumani,
Toshkent 100095, O'zbekiston